



“TASDIQLAYMAN”

“Urganch innovatsion universiteti” ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori M.Masharipov

Urganch innovatsion universiteti ilmiy faoliyati 2024 – 2025-o‘quv yilining yarim yillik HISOBOTI

Seljuk universiteti Ziraat fakulteti Prof.Dr. Mithat Direk tomonidan tashkil etilgan “Uluslararası Kirsal Turizm ve Kalkınma kongresi”da ishtirok etgan N.P.Kamolova “Bereket tanricalari-anahita ve anbar anne” mavzusidagi ma’ruza bilan chiqish qildi. Qardosh xalqlar jam bo‘lgan anjumanda o‘qituvchimiz N.Kamolovaning ma’ruzalari yuqori baholandi.



Urganch innovatsion universiteti dotsenti, O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, “Shuhrat” medali sohibasi, shoira **Sayyora Samandarovaga** Turon Fanlar akademiyasining **29.09.2024-yildagi** Prezidiumi qarori bilan Turon fanlar akademiyasi haqiqiy a‘zosi, akademik unvoni berildi.

Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasidagi ko‘p yillik samarali mehnati hamda o‘z xizmat vazifasiga bo‘lgan sadoqati uchun Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vaziri **K.Sharipov** tomonidan Urganch innovatsion universiteti rektori **Ishmuratov Madamin Jumaboyevich Faxriy yorliq** bilan, Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar sohasidagi ko‘p yillik samarali mehnati hamda o‘z xizmat vazifasiga bo‘lgan sadoqati uchun universitet


ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori **Masharipov Mansurbek Masharipovich Tashakkurnoma** bilan taqdirlandi.



Urganch innovatsion universiteti rektori **Ishmuratov Madamin Jumaboyevich** rahbarligida Raqamli ta'lim texnologiyalari bo'limi boshlig'i **Allayarov Dilshod Maratovich**, Ta'lim sifatini nazorat qilish departamenti bo'limi boshlig'i **Yusupov Davron Firnafasovich**, Xalqaro ta'lim va hamkorlik bo'limi boshlig'i **Xusainov Jahongir Baxodorovichlar** 2024-yilning **3-oktabr sanasidan 5-oktabr sanasiga** qadar **Rossiyaning Altay o'lkasi Belokurixa shahrida** bo'lib o'tgan **Oltoy-Osiyo Xalqaro ta'lim** forumida ishtirok etib, oliygohimiz va ishtirok etuvchi boshqa universitetlar Oliy ta'lim sohasida o'zaro hamkorlikni mustahkamlash, bir qator yo'nalishlarda o'zaro tajriba almashish masalalarini muhokama qildilar.



Delegatsiya a'zolari **7 – 8-oktabr** kunlari A.S.Pushkin nomidagi Leningrad davlat universiteti rektori, professor **Grigoriy Viktorovich Dvas** taklifiga binoan mazkur universitetga ham tashrif buyurib, ikkala oliygohning kelgusida hamkorlik natijasida amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan yangi loyihalar, xususan, professor-o'qituvchi va talabalar almashinuvi, masofaviy ta'lim yo'nalishlarini yanada rivojlantirishga kelishib oldilar.



10-oktabr kuni Xalqaro ta'lim va hamkorlik bo'limi boshlig'i PhD. **Xusainov Jaxongir Baxodirovich** A.S Pushkin nomidagi Leningrad davlat universitetining tabiiy fanlar, geografiya va turizm fakulteti 3-bosqich talabalari uchun **“Turizm marketingi falsafa sifatida va Xorazm viloyati misolida, mintaqa turizm salohiyatidan samarali foydalanish”** mavzusida ma'ruza qildi.

Shu bilan birga, ikkita universitet o'rtasidagi fakultetlararo professor-o'qituvchi va talabalar almashinuvini amalga oshirishga ham kelishib olindi.



Raqamli ta'lim texnologiyalari bo'limi boshlig'i **Allayorov Dilshodbek Maratovich A.S.** Pushkin nomidagi Leningrad davlat universiteti Raqamli ta'lim va masofaviy ta'lim mutassaddilari bilan fikr almashib kelajakda masofaviy ta'limdagi dasturiy ta'minotlarni hamkorlikda qo'llashga kelishib oldilar.



18-oktabr kuni Rossiya Federatsiyasining A.S.Pushkin nomidagi Leningrad davlat universiteti rektori **G.V.Dvas** tomonidan Urganch innovatsion universiteti rektori **Ishmuratov Madamin Jumabayevich** nomiga minnatdorlik xati yo'llandi. Unda Urganch innovatsion universitetining raqamli ta'lim texnologiyalari bo'limi boshlig'i

Allayorov Dilshodbek Maratovich hamda xalqaro aloqalar bo'lim boshlig'i **Xusainov Jahongir Bahodirovichlarning** A.S.Pushkin nomidagi Leningrad davlat universiteti tabiiy bilimlar, geografiya va turizm fakulteti talabalariga **“Turizmda marketing texnologiyalari (O'zbekiston Respublikasi Xorazm viloyati misolida)”** mavzusida qilgan ma'ruzalari hamda ikki tomonlama xalqaro hamkorlikni o'rnatishga zamin hozirlaganliklariga alohida urg'u berildi.



Urganch innovatsion universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori, filologiya fanlari bo'yicha falsafa doktori **Masharipov Mansurbek Masharipovich** hamda Ta'imni kredit tizimi boshqarish va ma'lumotlar bazasini monitoring qilish bo'yicha bosh mutaxassisi **Abdullayev Abdulla Quronboyevichlar Qozog'iston Respublikasiga** ilmiy tashrif buyurib, **2024-yil 21-oktabr** sanasida Qozog'iston Respublikasi Fan va oliy ta'lim vazirligi **Atyrau University** da bo'lib o'tgan **“Tarix va shaxs: Nurtas Ondasinov hayoti va davlatdagi xizmati”** Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasida ishtirok etdilar.



Konferensiyadan so'ng **Atyrau University** prorektori **Utepkaliyeva Kansulu Musayevna** bilan bo'lgan suhbatda universitetlar o'rtasida ilmiy sohalarda qo'shma ta'lim dasturlarini tashkil etish, talaba va professor-o'qituvchilar almashinuvini yo'lga qo'yish, hamkorlikda ilmiy-tadqiqot ishlarini olib borish, hamkorlikni mustahkamlash kabi masalalarni muhokama qildilar.



Atyrau University da bo'lib o'tayotgan tadbirlarning keyingi kunida ya'ni, 22-oktabrda **“Satimjon Sanboyev ijodida adabiy an'ana va milliy ong”** Respublika ilmiy-amaliy konferensiyasi o'tkazildi. Anjumanda **Gollandiya, Germaniya, Turkiya, O'zbekiston hamda Ozarbayjon** kabi davlatlardan tashrif buyurgan filologlar ishtirok etishdi.



Atyrau University rektori **Idrisov Salamat Nurmuhanuli** hamda **Masharipov Mansurbek Masharipovich** ishtirokida bo‘lib o‘tgan uchrashuv jarayonida ham ikkala oliygoh o‘rtasida kelgusida amalga oshirilishi ko‘zda tutilayotgan hamkorlik muhokama qilindi. Tadbir yakunida taqdim qilingan **Tashakkurnomada** ham hamkorligingiz va xalqaro aloqalaringiz uchun chuqur minnatdorchilik bildiramiz, sizning yuqori malakangiz va professionalligingizni alohida ta’kidlaymiz, umid qilamizki, kelgusida hamkorligimiz yanada mustahkamlanadi va yanada samarali bo‘ladi kabi so‘zlar joy oldi!



2024-yil 27-oktabr kuni bo‘lib o‘tgan O‘zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi Qonunchilik palatasi va mahalliy Kengashlar deputatlari saylovida ovoz berish jarayonida Urganch innovatsion universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, PhD. **Masharipov Mansurbek Masharipovich** ham faol ishtirok etdi.



2024-yil 28-oktabr kuni Denov tadbirkorlik va pedagogika institutida “Umumta’lim fanlarni sinxron va asinxron bog‘lab o‘quvchi kreativ faoliyatini rivojlantirishda integrativ yondashuv” mavzusida Respublika miqyosidagi ilmiy-amaliy konferensiya o‘tkazildi. Konferensiyada Urganch innovatsion universiteti “Pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasini mudiri, Pedagogika fanlari bo‘yicha falsafa doktori, dotsent **Sabirova Charosxon Atamamatovna** ham “Talabalarda ma’naviy-axloqiy tafakkurni sonagen tarbiyalash” mavzusidagi ma’ruzasi bilan ishtirok etdilar.



Urganch innovatsion universiteti talabalari o‘rtasida “**Universitetim — faxrim mening**” shiori ostida o‘tkazilgan stol tennisi va shaxmat-shashka sport musobaqalari bo‘lib o‘tdi. **2024-yil 29-oktabrda** bo‘lib o‘tgan g‘oliblarni taqdirlash marosimida universitet ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori **M.Masharipov** ham ishtirok etib, g‘oliblarni tabrikladi va ularga esdalik sovg‘alarini topshirdi. Bu kabi musobaqalar

talabalarning nafaqat jismoniy, balki intellektual salohiyatini rivojlantirishda muhim ahamiyat kasb etib, ular orasida sog‘lom raqobat muhitini shakllantirishga xizmat qilishini ta’kidlab o‘tdilar.



31-oktabr kuni shu shior ostida universitet professor-o‘qituvchilari o‘rtasida o‘tkaziladigan voleybol, stol tennisi hamda shaxmat-shashka sport musobaqalari qizg‘in tarzda bo‘lib o‘tdi. G‘oliblarni taqdirlash marosimida ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektor M.Masharipov so‘z olib, bugungi kunda sog‘lom turmush tarzini shakllantirish nafaqat talabalarni, balki universitet professor-o‘qituvchilari uchun ham muhim vazifa hisoblanishini va bu kabi musobaqalar tanani chiniqtirish bilan bir qatorda universitet jamoasi o‘rtasidagi do‘stona muhitni mustahkamlashi, ish unumdorligini oshirishga xizmat qilishini ta’kidlab o‘tdi. G‘olib bo‘lgan jamoalar va professor-o‘qituvchilarga pul mukofotlari hamda qimmatbaho sovg‘alar topshirildi.





2024-yil 3-noyabr kuni Urganch innovatsion universiteti rektori **Ishmuratov Madamin Jumaboyevichga** Turon fanlar akademiyasi prezidiumi qaroriga asosan Turon fanlar akademiyasi akademigi unvoni bilan taqdirlandi.



4-noyabr Urganch innovatsion universiteti tashkil etilganligiga **2 yil** to'lganligi munosabati bilan oliygoxda bayram tadbiri tashkil etildi

Tadbir chin ma'noda ushbu maskanga jam bo'lgan katta bir jamoaning, katta bir oilaning birdamligini va yangi marralar sari ildam qadam tashlayotganini ifoda etdi!

Tadbir avvalida Urganch innovatsion universiteti rektori **Ishmuratov Madamin Jumabayevich** oliygohimiz tashkil etilishidagi mashaqqatlar hamda bugungi erishilayotgan katta yutuqlarni alohida e'tirof etdilar!



Tadbir davomida talabalar tomonidan taqdim etilgan musiqiy chiqishlar va sahna ko‘rinishlar orqali Ona yurtga muhabbat, tinch va osuda kunlar uchun shukronalik, Vatan istiqboli uchun qo‘lni qo‘lga bergan yoshlarning samimiy tuyg‘ulari ifoda etildi! Tadbir so‘nggida so‘z olgan ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori **M.Masharipov** bugungi bayram har bir talaba, har bir professor-o‘qituvchi uchun katta ahamiyatga ega ekanligini, universitet qisqa vaqt ichida katta yutuqlarga erishib, nafaqat viloyat, balki respublika miqyosida ham o‘zining mustahkam o‘rnini topganligini, bugungi shodiyonada namoyon bo‘lgan iqtidor, g‘ayrat va shijoat universitetning yorqin kelajagidan dalolat berishini ta’kidlab, bayram bilan yana bir bora barchani chin dildan muborakbod etdi.



Urganch innovatsion universiteti kasaba uyushmasi xodimlarining huquqiy va ijtimoiy manfaatlarini himoya qilish, kasaba uyushmalari nufuzini oshirishga salmoqli hissasini qo‘shayotgani hamda

11-noyabr — “**O‘zbekiston kasaba uyushmalari kuni**” munosabati bilan Urganch innovatsion universiteti rektori **Ishmuratov Madamin Jumabayevich** O‘zbekiston transport, yo‘l va kapital qurilish, qurilish industriyasi xodimlari kasaba uyushmasi Respublika Kengashining Faxriy yorlig‘i bilan, shuningdek, universitet ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori **Masharipov Mansurbek Masharipovich** ham uyushmaning esdalik sovg‘alari bilan taqdirlandilar!



O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining **2018-yil 27-apreldagi PQ-3682-son** qarorida mamlakatda innovatsion infratuzilmani yanada takomillashtirish, tadbirkorlikni va innovatsion salohiyatni rivojlantirish uchun qulay sharoitlar yaratish maqsadida bir qator mas’ul vazirlik va idoralar bilan hamkorlikda har yili **“Inno Week.uz — 2024”** Xalqaro innovatsion g‘oyalar haftaligini o‘tkazish belgilangan.

Shu munosabat bilan **14-noyabr** kuni **“Inno Week.uz — 2024”** Xalqaro innovatsion g‘oyalar haftaligining ochilish marosimi bo‘lib o‘tdi. Nufuzli tadbirda Urganch innovatsion universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori **Masharipov Mansurbek Masharipovich** ham oliygohimiz nomidan ishtirok etdi!





Urganch innovatsion universiteti talabalar turar joyida Osh chempionati o‘tkazildi. Tarbiyachi-pedagog D.Jumaniyozova tomonidan tashkil etilgan chempionatda talaba-qizlar o‘zlarining oshpazlik mahoratini namoyish qildilar.

O‘zbigim dasturxonining eng totli taomi hisoblanmish palovni eng shirin tayyorlagan va eng chiroyli bezatgan holda taqdim qilgan qo‘li pazanda qizlarimiz universitetimiz rahbariyati tomonidan taqdirlandi! Tadbir so‘nggida so‘z olgan **M.Masharipov** bu kabi tadbirlarning muntazam tashkil etilishi va qizlarning undagi ishtiroki ularning katta hayotga munosib tayyorgarlik ko‘rishlari uchun ahamiyatli ekanligini ta’kidlab o‘tdi.



2024-yil 5-dekabr kuni Xorazm viloyati Urganch shahrida joylashgan Yoshlar markazida “Zamonaviy yoshlar taraqqiyot drayveri” mavzusida ilm-fan va innovatsiyalarga bag‘ishlangan ochiq muloqot bo‘lib o‘tdi

Tadbirda Urganch innovatsion universiteti Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i **M.Matnazarov**, professor-o‘qituvchi va talaba-yoshlarimiz ham ishtirok etdilar.



O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 428-sonli buyrug‘ini ijrosini ta’minlash hamda ajdodlarimiz xotirasini abadiylashtirish, ularning faoliyati va merosini yangicha tafakkur asosida o‘rganish, talaba-yoshlarni yuksak ma’naviyatini shakllantirish, jadidlarimizning badiiy asarlari roli va ahamiyatini yoshlar ongiga singdirish, jadid bobolarimiz faoliyatini o‘rganish, shuningdek, ularning ibratli hayoti va ijodi bilan tanishish maqsadida Urganch innovatsion universitetida talaba-yoshlar o‘rtasida bo‘lib o‘tgan **“Jadidlar jasorati – millatimiz faxri”** hamda **“Jadidlar: miliy o‘zlik, istiqlol va davlatchilik g‘oyalari”** mavzularida insholar tanlovi tashkil etildi.

O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta’lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-noyabrdagi 428-sonli buyrug‘i va shu buyruq ilovalari asosida 2024-yil 19-noyabr sanasida Urganch innovatsion universiteti rektorining 56-U buyruqi va ilovalari ishlab chiqildi hamda tasdiqlandi. 10-dekabr Urganch innovatsion universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori(PhD), Tashkiliy ishchi guruh raisi **M.Masharipov** Tashkiliy ishchi guruh a‘zolari bilan yig‘ilish o‘tkazib, Tanlovning maqsadi, vazifalari, tashkil etish tartibi va shartlari, tanlov shartlarinibaholash mezonlari, g‘oliblarni taqdirlash kabi masalar ko‘rib chiqildi hamda Tanlov 12-dekabr sanasida o‘tkazilishi kelishilib olindi.



Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i **M.Matnazarov** Tanlovni tashkil etish bilan bog‘liq barcha tashkiliy ishlarni amalga oshirdi hamda 12-dekabr kuni Tanlovni nizom talablari asosida yuqori saviyada o‘tkazilishini ta‘minladi.

Tashkiliy ishchi guruh tomonidan tanlov g‘oliblar 2024-yil 13-dekabr kuni g‘oliblar taqdirlandi. G‘oliblarga universitet tomonidan diplom hamda qimmatbaho sovg‘alar topshirildi.




2024-yil 13-dekabr kuni Qashqadaryo viloyati Qarshi shahrida Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining navbatdagi kengaytirilgan Hay‘at yig‘ilishi, “Besh tashabbus olimpiadasi” doirasida oliy ta‘lim muassasalari talabalari o‘rtasida ommaviy sport musobaqalari respublika final bosqichi va boshqa tadbirlar o‘tkazilishi rejalashtirilgan edi.

Shu munosabat bilan o‘tkazilgan musobaqalarining taqdirlash marosimida Urganch davlat universiteti rektori v.b. **S.Xo‘janioyov**, Urganch davlat pedagogika instituti rektori **F.Madraximova** hamda Urganch innovatsion universiteti prorektori **M.Masharipovlar** ham ishtirok etdilar. Tashrif doirasida mehmonlar Qarshi shahrida joylashgan **Turon universitetiga** ham tashrif buyurib, oliygoh faoliyati bilan ham tanishdilar.



Urganch innovatsion universitetiga Turon fanlar akademiyasi vitse prezidenti, **“Turon xalqaro ixtirochilar va ratsionalizatorlar uyushmasi”** raisi **Iskandarov Zafar Samandarovich** tashrif buyurdi. Tashrif doirasida **Zafar Samandarovich** Urganch innovatsion universiteti rektori f.f.n, **Ishmuratov Madamin Jumabayevichga** Turon fanlar akademiyasi akademigi unvonini tasdiqlovchi ko‘krak nishoni va guvohnomasini tantanali ravishda topshirdi!

Shuningdek, tadbir davomida O‘zbekiston Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, **“Shuhrat”** medali sohibasi, Turon fanlar akademiyasi akademigi **Sayyora Samandarova** ham **“Turon fanlar akademiyasiga 10 yil”** ko‘krak nishoni bilan taqdirlandi!





Urganch innovatsion universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo'yicha prorektori **M.Masharipov** hamda universitetning iqtidorli talabalari ishtirokida uchrashuv o'tkazildi

Uchrashuvda shuningdek, Ijtimoiy-gumanitar fanlar va pedagogika fakulteti dekani **B.Satimov**, Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo'limi boshlig'i **M.Matnazarov** hamda ushbu bo'lim bosh mutaxassisi **S.Qo'shchanovlar** ham ishtirok etib, oliygohimizda tengdoshlariga namuna bo'lib kelayotgan talaba-yoshlarning ilm yo'lidagi yuksalishlari uchun ustoz-shogird an'anasini yo'lga qo'yish va kelgusida amalga oshirilishi ko'zda tutilayotgan rejalar xususida so'z yuritdilar. Ushbu talaba-yoshlar orasidan prezident hamda nomdor davlat stipendiyasi sovrindori bo'lish uchun davogarlik qila oladigan bilimli va iqtidorli yoshlar borligiga ishonch bildirdilar.



2024-yil 22-dekabr kuni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o‘zbek tili va adabiyoti universiteti professori, pedagogika fanlari doktori, Yozuvchilar uyushmasi a‘zosi, Qozog‘iston Respublikasining “Abay” medali sohibi, o‘zbek tili jonkuyarlaridan biri, umumturk alifbosini yaratish bo‘yicha xalqaro komissiya a‘zosi, yetuk olim **Yo‘ldoshev Qozoqboy Boybekovich** Urganch innovatsion universitetiga tashrif buyurdi.

Tashrif doirasida **Qozoqboy Boybekovich** “Pedagogika va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi” kafedrasida professor-o‘qituvchilari bilan davra suhbatida ishtirok etdi.



2024-yil 24-noyabr kuni Urganch innovatsion universiteti ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori **M.Masharipov** Turon fanlar akademiyasi prezidiumi qaroriga asosan Turon fanlar akademiyasi akademigi unvoni bilan taqdirlandi.



Urganch innovatsion univerviteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va pedagogika fakulteti “**Ijtimoiy-gumanitar fanlar**” kafedrasida 2024/2025-o‘quv yilida asosiy shtatda **25 nafar** professor-o‘qituvchi faoliyat ko‘rsatmoqda. Shundan 1 nafar fan doktori (professor), 13 nafari PhD (dotsent)ni tashkil etadi. Kafedra ilmiy salohiyati **56 %** ni tashkil etadi. 4 nafar professor-o‘qituvchi mustaqil izlanuvchi (DSc), 10 nafar professor-o‘qituvchi mustaqil izlanuvchi (PhD) sifatida ilmiy tadqiqotlar olib borishmoqda.

“**Pedagogika va boshlang‘ich ta‘lim metodikasi**” kafedrasida asosiy shtatda **29 nafar** o‘qituvchilar faoliyat yuritadi. Shulardan 1 nafar doktoranturaga 1 nafari mustaqilga (DSc), 13 nafar mustaqil tadqiqotchi (PhD) hamda 3 nafar tayanch doktorantura (PhD) ga qabul qilinganlar.

“O‘zbek va xorijiy filologiya” kafedrasida asosiy shtatda **32 nafar** o‘qituvchilar faoliyat yuritadi. Shulardan 5 nafar erkin tadqiqotchi, 8 nafar mustaqil tadqiqotchi (PhD) hamda 2 nafar tayanch doktorantura (PhD) ga qabul qilinganlar.

Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va ilmiy pedagogik kadrlarni tayyorlash bo‘limi boshlig‘i **M.Matnazarov** 2024-yil 24-oktabr kuni Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD.03/30.12.2019.Fil.55.02 Ilmiy kengashida **“Urganch shahri urbanonimlarining antroposentrik tadqiqi”** mavzusidagi dissertatsiyasini, “Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedrasini mudiri **U.Maxmudov** 2024-yil 9-noyabr kuni Urganch davlat universiteti huzuridagi ilmiy darajalar beruvchi PhD.03/30.06.2021.Tar.55.05 raqamli Ilmiy kengashda **“Orolbo‘yi sharqiy hududida ijtimoiy-iqtisodiy va etno-madaniy munosabatlar tarixi”** mavzusidagi dissertatsiyasini muvaffaqiyatli himoya qildilar.

“O‘zbek va xorijiy filologiya” kafedrasini o‘qituvchisi **Xalliyev Jasurbek Iskandarovichning** **“Ogahiy tarixiy asarlarida ma’rifiy-falsafiy leksika”** mavzusidagi dissertatsiyasi himoyaga qo‘yildi. Shuningdek, **Matqurbonova Muhabbat Shokirovna** **19-dekabr** kuni Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat O‘zbek tili va adabiyoti univertistida filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori ilk himoya bosqichi (seminar)dan muvaffaqiyatli o‘tdi.

“Pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasini katta o‘qituvchisi **Raximova Nilufar Egamberganovna** A.Avloniy nomidagi pedagogik mahorat milliy instituti huzuridagi PhD.28/30.12.2019.Ped.68.01 raqamli ilmiy kengashda **“Ta’lim mazmunini modernizatsiyalash sharoitida texnologiya fani bo‘yicha mashg‘ulotlarni tashkil etishga kompetensiyaviy yondashuv”** mavzusida 13.00.02 - Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi ixtisosligi bo‘yicha ilmiy seminardan 100% ovoz bilan himoyaga tavsiya qilindi!

“O‘zbek va xorijiy filologiya” kafedrasini o‘qituvchisi **Zaripova Shukurjon Otajon qizi** **“Yangi davr o‘zbek nasrida folklorizmlar (Abduqayum Yo‘ldosh, Zulfiya Qurolboy qizi ijodi misolida)”** mavzusida 10.00.02 – O‘zbek adabiyoti ixtisosligi bo‘yicha, **“Pedagogika va boshlang‘ich ta’lim”** kafedrasini o‘qituvchilari **Xudayorova Muhayyo Omonboy qizi** hamda **Mullayeva Madina Kudratovna** UrDU tayanch doktoranturasiga 2025-yilgi qabul imtihon natijalariga ko‘ra 13.00.02 -Ta’lim va tarbiya nazariyasi va metodikasi(sohalar bo‘yicha) ixtisosligi bo‘yicha Urganch davlat universiteti tayanch doktoranturaga qabul qilindi.

Kafedralarda 2024/2025-o'quv yilining sentabr, oktabr, noyabr va dekabr oylari davomida ilmiy faoliyatda samarali ishlar qilindi. Xususan, **“Ijtimoiy-gumanitar fanlar”** kafedrasida dotsenti v.b. **B.Satimov** tomonidan hammualliflar ishtirokida **“O‘zbekiston tarixi”** fanidan uslubiy ko‘rsatma, o‘qituvchi **K.Nurullayeva** tomonidan **“O‘zbekistonning eng yangi tarixi”** fanidan 2 ta uslubiy qo‘llanma, kafedra dotsent v.b. **S.Babajanov** tomonidan **“Falsafa”** va **O.Rajabov** tomonidan **“Mediasavodxonlik va axborot madaniyati”** fanlaridan umumiy hisobda 5 ta uslubiy qo‘llanmalar nashr qilindi. **“O‘zbek va xorijiy filologiya”** kafedrasida dotsent **Q.Olloyorov** 1 ta **“Adabiyot uchqunlari”** nashriyotida **“Areal lingvistika fanini o‘qitish asoslari”** nomli, Q.Xalliyeva 1 ta nemis tilidan **“Haben, sein, werden yordamchi fe’llari bobida leksik, grammatik mashqlar”** nomli, D.Sobirova 1 ta **“O‘qish va yozish amaliyoti (reading and writing)”** nomli o‘quv qo‘llanmalar nashr qildirdilar. Shuningdek, ushbu kafedra o‘qituvchisi **R.Xudayberganov** **“O‘zbekiston joy nomlarining izohli lug‘ati”** nomli 2 jildli kitob nashr qilishda tuzuvchi sifatida qatnashdi.

Kafedra rejasiga muvofiq ilmiy-nazariy seminarlar ham muntazam o‘tkazilib kelinmoqda. Rejaga muvofiq, har oy **2 ta seminar** o‘tkazilishi rejalashtirilgan. Jumladan, 2024-yil 12-sentabr kuni kafedra ilmiy-nazariy seminarida dots. R. Abdirimovning **“Gurganch-Xorazmshohlar davlatining markazi”** mavzusida, 2024-yil 26-sentabr kuni prof. O.Naumenkning **“Междисциплинарность в историческом исследовании”** (Tarixiy tadqiqotlarda fanlararolik) mavzusida, 2024-yil 17-oktabr kuni kafedra dotsenti R.Anyozovning **“Markaziy Osiyoning karvon yo‘llari infratuzilmalari va xizmat ko‘rsatish sohalari (XIV-XIX asrlar)”** mavzusida, 2024-yil 30-oktabr kuni kafedra o‘qituvchisi U.Ismailov **“Xorazm vohasi paleoekologiyasi tarixi”** mavzusida, 2024-yil 14-noyabr kuni dotsent v.b. N.Kamalova **“Xorazm vohasida dehqonchilik an‘analari tarixi (XIX asr -XX asr boshlari)”** mavzusida, 2024-yil 28-noyabr kuni o‘qituvchi O.Shomuratov **“Anushtegin-Xorazmshohlar davri shaharsozlik jarayonlar”** mavzusida, 2024-yil 12-dekabr kuni dots. D.Atayeva **“O‘zbekistonda gender munosabatlarning takomillashuvi”** mavzularida ma‘ruzalar tinglandi.

“Pedagogika va boshlang‘ich ta’lim metodikasi” kafedrasida 2024-yil 6-sentabr kuni kafedra ilmiy-nazariy seminarida PhD. M.Sh.Axmedova **“Xorazm viloyati ninachilar (Insecta; Odonata) faunasi va ekologiyasi”** mavzusida, 2024-yil 20-sentabr kuni dots. E.J.Samandarovning **“Madaniylashtirilgan uy sharoitida ekologik toza shampinion**

qo‘ziqorinini yetishtirish texnologiyasi” mavzusida, 2024-yil 4-oktabr kuni kafedra dotsenti J.Doschanovning “O‘zbekistonning shimoliy hududlariga moslashgan triticales novlarini tanlash va ularning fiziologik xususiyatlarini o‘rganish” mavzusida, 2024-yil 18-oktabr kuni kafedra o‘qituvchisi A.G‘aniyeva “Kognitiv texnologiyalar yordamida bo‘lajak o‘qituvchilarda kreativlik fikrlashni rivojlantirish tizimi” mavzusida, 2024-yil 15-noyabr kuni kafedra stajyor-o‘qituvchisi E.Sariyeva “Madaniy turizm orqali talabalar madaniy-ma’rifiy tarbiyasini shakllantirish” mavzusida, 2024-yil 29-noyabr kuni o‘qituvchi F.Kutliyeva “Bo‘lajak boshlang‘ich sinf o‘qituvchilarining o‘z-o‘zini rivojlantirish kompetensiyasini takomillashtirish metodikasi” mavzusida, 2024-yil 6-dekabr kuni Phd. A.Ruzimov “Uch qatlamli dissipative bir jinsli bo‘lmagan silindirik jismning tebranish xususiyatlari” mavzularida ma’ruzalar tinglandi.

“O‘zbek va xorijiy filologiya” kafedrasida 2024-yil 11-sentabr kuni kafedra ilmiy-nazariy seminarida J.Xalliyevning “Ogahiy tarixiy asarlarida ma’rifiy-falsafiy leksika” mavzusida, 2024-yil 25-sentabr kuni dots. Q.Olloyorovning “Dostonlar tilidagi onomastik tarmoqlar haqida mulohazalar” mavzusida, 2024-yil 9-oktabr kuni D.Sobirova “Inglizabon va o‘zbek nasirda badiiy kompozitsion polifonizmning talqini. (XX-XXI asrlarda O‘zbekiston va Inglizabon yozuvchilarining ijodi asosida)” mavzusida, 2024-yil 23-oktabr kuni kafedra o‘qituvchisi G.Kazakova “Mustaqillik davri esselarida shoir va yozuvchilar siymosi talqini” mavzusida, 2024-yil 6-noyabr kafedra o‘qituvchisi Sh.Xodjayeva “Realistik adabiyotni milliy-madaniy me’ros sifatida shakllantiruvchi xususiyatlar qiyosi (XIX – XX asr ingliz va o‘zbek klassik realizmi misolida)” mavzusida, 2024-yil 11-noyabr kuni o‘qituvchi E.Niyozmetov “Hozirgi o‘zbek she’riyatida badiiy san’atlar tadriji” mavzusida, 2024-yil 18-dekabr kuni kafedra o‘qituvchisi E.Yuldashev “Komil Xorazmiy devoni lingvopoetikasi xususida” mavzularida ma’ruzalar tinglandi.

“Ijtimoiy-gumanitar fanlar” kafedra professor-o‘qituvchilari tomonidan o‘tgan davr mobaynida **1 ta** Scopus bazasida maqola, **7 ta** OAK ro‘yxatidagi ilmiy jurnalda, **9 ta** xalqaro jurnallarda, shuningdek, **5 ta** xalqaro va respublika konferensiya to‘plamlarida maqola va tezislar e’lon qilindi.

“O‘zbek va xorijiy filologiya” kafedrasida professor-o‘qituvchilari tomonidan o‘tgan davr mobaynida **1 ta** Scopus bazasida maqola, **8 ta** OAK ro‘yxatidagi ilmiy jurnalda, **5 ta** xalqaro jurnallarda, shuningdek, **6 ta** xalqaro va respublika konferensiya to‘plamlarida maqola va tezislar e’lon qilindi.

“Pedagogika va boshlang‘ich ta‘lim” kafedrası professor-o‘qituvchilari tomonidan o‘tgan davr mobaynida **17 ta** OAK ro‘yxatidagi ilmiy jurnalda, shuningdek, **8 ta** xalqaro konferensiyalarda, **5 ta** respublika konferensiya to‘plamlarida maqola va tezislari e‘lon qilindi.



Urganch innovatsion universiteti Ijtimoiy-gumanitar fanlar va pedagogika fakulteti Filologiya va tillarni o‘qitish: O‘zbek tili yo‘nalishi 3-bosqich talabasi **Karimova Mahliyo Atobayevna** universitet ilmiy ishlar va innovatsiyalar bo‘yicha prorektori, filologiya fanlari bo‘yicha falsafa doktori **Masharipov Mansurbek Masharipovich** boshchiligida **“O‘zbek tilida harakat tarzi leksemalari semantikasi va leksikografik talqini”** mavzusida ilmiy ish olib borib, O‘zbekiston Respublikasi Oliy ta‘lim, fan va innovatsiyalar vazirligining 2024-yil 11-dekabr 464-sonli buyrug‘iga asosan 2024/2025-o‘quv yili uchun **Islom Karimov nomli davlat stipendiyasiga** sazovor bo‘ldi.

Shuningdek O‘zbek va xorijiy filologiya kafedrası mudiri, dotsent **Olloyorov Quvondiq Madiyorovich** ilmiy rahbarligida Urganch davlat universiteti talabasi **Davlatnazarov Davlatnazar Ro‘zmatboy o‘g‘li Navoiy nomli davlat stipendiyasiga** sazovor bo‘ldi.

**Ilmiy tadqiqotlar, innovatsiyalar va
ilmiy pedagogik kadrlarni
tayyorlash bo‘limi boshlig‘i**

M.Matnazarov